Qoradaryo suv havzasida uchrovchi Qumbaliqlar (Gobionidae Bleeker, 1863) oilasi vakillari haqida.

Komilova Dildoraxon Ikromjonovna
Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi b.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona va Namangan viloyatlaridan oqib o‘tuvchi Qoradaryo suv havzasida tarqalgan qumbaliqlar (Gobionidae Bleeker, 1863) oilasi vakillari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, Qoradaryoda ushbu oila vakillariga 3 urug‘ga mansub 3 tur kirishi qayd etilgan. Ushbu turlarning bittasi endem va ikkitasi invaziv turlardir. *Gobio lepidolaemus* (Sirdaryo havzasi) endemik turi hisoblanadi. *Abbottina rivularis* va *Pseudorasbora parva* esa invaziv turlar.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о представителях семейства пескаревых (Gobionidae Bleeker, 1863), распространённых в бассейне реки Карадарья, протекающей через Ферганскую и Наманганскую области. В реке Карадарья отмечены три вида, относящиеся к трём родам этого семейства. Один из этих видов является эндемичным, а два — инвазивными. *Gobio lepidolaemus* является эндемиком бассейна Сырдарьи, тогда как *Abbottina rivularis* и *Pseudorasbora parva* относятся к инвазивным видам.

Abstract. This article provides information about representatives of the gudgeon family (Gobionidae Bleeker, 1863) distributed in the Karadarya River basin, which flows through the Fergana and Namangan regions. In the Karadarya River, three species belonging to three genera of this family have been recorded. One of these species is endemic, while two are invasive. *Gobio lepidolaemus* is an endemic species of the Syrdarya basin, whereas *Abbottina rivularis* and *Pseudorasbora parva* are invasive species.

Kalit so‘zlar: Qoradayo, ixtiofauna, suv havzasi, *Gobio lepidolaemus, Abbottina rivularis, Pseudorasbora parva.*

Ключевые слова: Карадарья, ихтиофауна, водоём, *Gobio lepidolaemus, Abbottina rivularis, Pseudorasbora parva.*

Keywords: Karadarya, ichthyofauna, water body, *Gobio lepidolaemus, Abbottina rivularis, Pseudorasbora parva.*

Qoradaryo Farg‘ona tog‘ tizmasining janubiy-sharqiy, Oloy tog‘ tizmasining shimoliy qismida Tor va Qorako‘lja daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Dastlab daryo Qirg‘izistonning O‘sh viloyati bo‘ylab oqib o‘tadi va undan so‘ng O‘zbekistonning Andijon viloyati hududiga kiradi. Daryo u yerdan yana Qirg‘izistonning Jalolobod viloyati hududida qisman oqib o‘tib, yana Andijon viloyatiga qaytadi. U yerdan Namangan viloyatining Baliqchi qishlog‘i yaqinida Norin bilan qo‘shilib Sirdaryoni hosil qiladi. Suvining loyqaligi sababli Qoradaryo nomini olgan. Qoradaryo qor va muzliklar erishi hisobiga to‘yinadi. Daryoning umumiy uzunligi 318 km ni tashkil etadi[3].

Qurshob, Oqbo‘yra va Aravonsoy daryolari Qoradaryoning chap irmoqlarini hosil qilsa, Yassi, Ko‘gart, Qorao‘ngur daryolari uning o‘ng irmoqlarini hosil qiladi. A. Boltaboyev tomonidan Qoradaryo umumiy hisobda uchta oqimga bo‘lingan. Ular yuqori, o‘rta hamda quyi oqimlardir. Yuqori oqimi Qirg‘iziston hududiga tegishli bo‘lib, Tor va Qorako‘lja daryolarining qo‘shilish qismidan boshlanadi va Andijon suv omborigacha davom etadi, uzunligi 29 km; o‘rta oqim Andijon suv omborining to‘g‘on qismidan boshlanadi va Andijon shahri yaqinidagi Kuyganyor to‘g‘onigacha bo‘lgan hududni qamrab

oladi, uzunligi 72 km; quyi oqim Kuyganyordan boshlanib, to Qoradaryoning Norin bilan qo‘shilishigacha bo‘lgan hududni tashkil etadi, uzunligi 66 km.

Qoradaryo suv havzasida qumbaliqlar (Gobionidae Bleeker, 1863) oilasining 3 urug‘iga mansub 3 turi tarqalgan bo‘lib, ular:

1. Urug‘. *Abbottina* Jordan & Fowler, 1903
1. *Abbottina rivularis* (Basilewsky, 1855) – Amur soxta qumbalig‘i
2.Urug‘. *Gobio* Cuvier, 1816
2. *Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872 – Turkiston qumbalig‘i
3.Urug‘. *Pseudorasbora* Bleeker, 1859
3. *Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846) – Amur chebakchasi

Abbottina rivularis (Basilewsky, 1855) – Amur soxta qumbalig‘i. Xitoyning shimoliy hududidagi daryo va ko‘llardan kashf etilgan mazkur tur Markaziy Osiyo suv havzalariga o‘tgan asrning ikkinchi yarmida boshqa baliq turlari bilan tasodifan kelib qolgan.



1-rasm. *Abbottina rivularis*, SL ~65 mm, Qoradaryo, 40.889459, 71.998422; 20.07.2023 [original]

Tashqi tomondan Turkiston qumbalig‘ini eslatadi, lekin undan ayrim belgilari bilan, jumladan, tumshug‘ining to‘mtoq bo‘lishi (vs. uchli), orqa suzgich qanoti orqa yuzasining sezilarli darajada uzun va qavariq bo‘lishi (vs. qisqa, tekis yoki biroz botiq), orqa va dum suzgich qanotlaridagi dog‘lar bir tekisda bo‘lishi (vs. bir tekisda bo‘lmaydi, tarqoq joylashgan), ko‘payish vaqtida erkaklarining ko‘krak suzgich qanotlarining birinchi nurida uchli tikanaklar hosil qilishi (vs. tikanaklar hosil qilmaydi) bilan farqlanadi[1]. Ayrim tadqiqotchilarning *A. rivularis* populyatsiyasi *G. lepidolaemus* ning mahalliy populyatsiyalarini siqib chiqarishi to‘g‘risida gipotezalari mavjud bo‘lib, B. Sheraliyev va Sh. Xalimovlarning kuzatuv natijalari ushbu qarashni tasdiqlamagan. Shu bilan birga, bizning turlar populyatsiyasi holatini baliqlarning umumiy uzunlik hamda og‘irlik munosabatlariga ko‘ra tahlil etishga oid tadqiqotlarimiz natijasi ham yuqoridagi gipotezaning haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatdi.

Qoradaryo o‘rta va quyi oqimida olib borgan ixtiologik kuzatuvlarimiz davomida *A. rivularis* daryoning quyi oqimida ko‘p sonda uchrashi qayd etildi. Uni ayniqsa, daryoning qirg‘oq hududida o‘simliklarga boy bo‘lgan suvi tiniq va sekin oqadigan qismlarida uchratish mumkin.

Gobio lepidolaemus Kessler, 1872 – Turkiston qumbalig‘i. *Gobio* urug‘i qumbaliqlar (Gobionidae) oilasiga mansub bo‘lib, Yevrosiyoning chuchuk suv havzalarida g‘arbda Pireney yarim orolidan sharqda to Xitoy, Mongoliya va sharqiy Sibirgacha bo‘lgan hududlarda uchrovchi vakillari bo‘lib, ularning bugungi kunda 50 ga yaqin turi ma’lum[1,6]. *Gobio lepidolaemus* K. Kessler tomonidan Zarafshon (O‘zbekiston) hamda Sirdaryo (Tojikiston) havzalaridan yig‘ilgan 50 ga yaqin namunaga asoslangan holda tavsiflangan[2,4] . Mazkur tur uzoq vaqt davomida *G. gobio* ning kenja turi sifatida ko‘rilgan. So‘nggi yigirma yillikda uning valid tur ekanligi asoslantirildi. Qoradaryodan qayd

etilgan *G. lepidolaemus* ning tanasi baland, ikki yon tomondan siqilgan, tanasining maksimal eni SLning 13,8–19,0% ni tashkil qiladi[7]. Tanasining eng baland qismi dorsal qanot boshlanadigan joyga to‘g‘ri kelib, SLning 22,9-26,2% ni tashkil qiladi va shundan so‘ng dum suzgich qanoti boshlanish qismiga tomon pasayib boradi. Boshi yon tomondan siqilgan, ensa qismidan o‘lchangan eni va bo‘i odatda bir-biriga teng.



2-rasm. *Gobio lepidolaemus*, SL ~55 mm, Qoradaryo, 40.786275, 72.992264; 18.06.2023 [original]

Qoradaryoning o‘rta va quyi oqimidagi kuzatuvlarimiz natijasida mazkur tur daryoning barcha qismida keng tarqalganligi ma’lum bo‘ldi. Daryo asosiy o‘zanidan tashqari uning irmoqlari, daryodan suv oluvchi kanallar va ariqlarda ham uchrashi qayd etildi.

Pseudorasbora parva (Temminck & Schlegel, 1846) – Amur chebakchasi. Amur chebakchasi O‘zbekiston suv havzalarida uchrovchi Gobionidae oilasining

A. rivularis dan keyingi ikkinchi invaziv baliq turlaridan biri bo‘lib, u tabiiy holda Sharqiy Osiyo suv havzalarida tarqalgan. Mazkur tur bugungi kunda Yevrosiyoning ko‘plab suv havzalarida uchraydi. O‘ziga xos tashqi ko‘rinishi sabab akvariumda boqiladigan manzarali baliq sifatida parvarishlash potensiali mavjud. Erkak individlari ko‘payish mavsumida biroz agressiv bo‘ladi, o‘z hududini qattiq qo‘riqlaydi. Ko‘payish mavsumida erkak baliqlarning tumshuq qismida o‘simtasimon bo‘rtiqchalar hosil bo‘ladi.



3-rasm. *Pseudorasbora parva*, SL ~70 mm, Qoradaryo, 40.830921, 72.241600; 14.07.2023 [original]

Qoradaryoning o‘rta va quyi oqimida daryoning sekin oqadigan qismlarida, shu bilan birga, qirg‘oqdagi o‘simliklarga boy bo‘lgan hududlarda uchrashi qayd etildi[5].

Daryoning o‘rta va quyi oqimidagi namunalarning morfometrik o‘lchamlari tekshirildi, natijada uning umumiy uzunligi 60,02-88,04 mm, standart uzunligi esa 50,15-72,25 mm oralig‘ida bo‘lishi qayd etildi. Boshi SLning 21,33-25,66% iga, dum bandining uzunligi esa 20,81-25,08% iga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. CPL/CPD nisbati esa 1,50-1,83 ga teng.

Xulosa qilib aytganda, Qoradaryo suv havzasida Qumbaliqlar oilasi vakillaridan 3 ta tur uchraydi. Ular **.** *Abbottina rivularis, Gobio lepidolaemus, Pseudorasbora parva* lardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamov O., Khalimov Sh., Gulomov S., Komilova D., Kayumova Y., Rakhmonov M., Abdulatipova Sh., Gafurova O., Komilova Kh., Asrolova M., Urmonova D., Sheraliev B. Length-weight relationships and condition factor of 30 species from the Upper Syr Darya drainage, Uzbekistan // Turkish Journal of Zoology, 2024, 48(7), – P. 685-691.
2. Coad B.W. Review of the gobionids of Iran (Family Gobionidae) // Iranian Journal of Ichthyology, 2019, 6(1), – P. 1-20.
3. Komilova D. Qoradaryo o‘rta oqimi ixtiofaunasining taksonomik reviziyasi // FarDU. Ilmiy xabarlar, – Farg‘ona, 2024. – №3 (Ilova to‘plam). – B. 470-474.
4. Mousavi-Sabet H., Ganjbakhsh B., Geiger M.F., Freyhof J. Redescription of *Gobio nigrescens* from the Hari River drainage (Teleostei: Cyprinidae) // Zootaxa, 2016, 4114(1), – P. 71-80.
5. Qayumova Y., Komilova D. Farg‘ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan Amur chebakchasi (*Pseudorasbora parva*) ning bioekologik xususiyatlariga oid // “Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi II-xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Nukus, 2021, 19-may, – B. 184-187.
6. Sheraliev B., Allayarov S., Peng Z. First records of *Gobio nigrescens* and *Gobio sibiricus* (Cypriniformes: Gobionidae) from the Amu Darya River basin, Uzbekistan // Journal of Applied ichthyology, 2020, 36 (2), – P. 235-239.
7. Sheraliev B., Kayumova Y., Komilova D., Jalolov E. Morphometric features and phylogenetic position of Turkestan gudgeon *Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872 (Cypriniformes: Gobionidae) in the Syr Darya River basin, Uzbekistan // Scientific Bulletin Series: Biological Research, 2020, 52(8), – P. 52-62.
8. Берг, Л. С. (1949a). *Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть II*. Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 467-925 с.
9. Shakirova, F. M. (2012). Present-Day Condition of Ichthyofauna in Reservoirs of Turkmenistan. In: Zonn I., Kostianoy A. (eds) The Turkmen Lake Altyn Asyr and Water Resources in Turkmenistan. *The Handbook of Environmental Chemistry*, 28, Berlin, Heidelberg: Springer, 233-260.
10. Мирзоев, Н. М. (2018). Видовой состав и экологические особенности рыб низовьев р. Вахш. *Известия академии наук Республики Таджикистан Отделение биологических и медицинских наук*, 4, 12-19.